

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QISH SAVODXONLIGINI
SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YO'NALISHLARI**

Orifjonova Hidoyatxon Foziljon qizi
Andijon davlat pedagogika institute pedagogika fakulteti
ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini shakllantirishning mazmuni, ahamiyati va uning tarkibiy qismlari haqida to'xtalib o'tilgan. O'qish savodxonligining kitobxon tafakkurini rovojlantirishdagi ahamiyati, matn bilan ishlash, tanqidiy fikrlashning shakllanishi ilmiy asosda tahlil etiladi. Shuningdek, to'g'ri, ravon, ifodali o'qish kabi qobiliyatlarning kitobxonlikka yo'naltirishdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Maqolada o'qish savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar, matn ustida ishlashning samarali usullari hamda o'quvchilarni mustaqil o'qishga o'rgatishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, matn ustida ishlash, ravon o'qish, ifodali o'qish, kitobxonlik, mustaqil o'qish.

Introduction

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy vazifalari o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash asnosida ularga bilimlarni chuqur egallash, o'zliklarini anglash, mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni shakllantirishdan iborat. Darhaqiqat, yosh kitobxon o'quvchilarimizda kitobga bo'lgan qarash, mehrlarini shakllantirishda boshlang'ich maktab bilimlari, kichik badiiy asarlar muhim o'rin egallaydi.

“Bolalarimizni bog'cha yoshidan, boshlang'ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o'rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg'aytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o'qishga qaytadi”, - deya ta'kidlaydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.[1]


Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar orasida o'qish savodxonligi fani muhim o'rin egallaydi, o'z maqsad va vazifalariga ko'ra alohida o'rin tutadi. Negaki, Uning tag zamirida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya yotadi. O'qish savodxonligi jamiyat va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok eta olish va amaliyotda qo'llay bilish qobiliyatidir.

Matn ustida ishlash mohiyat e'tibori bilan asar mazmunini o'zlashtirish, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish va shu asosda o'quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berish vazifasiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari roman, qissa, dostonlarni batafsil yoritib, to'liq tahlil qila olmaydilar. Matnlarni esa o'qib tahlil qilish jarayonida ularda tanqidiy va mustaqil fikrlash malakalari o'sadi.[2]

O'qish savodxonligi bu nafaqat matnni o'qish va tushunish ko'nikmasi, balki o'quvchilar matnni anglash, tahlil qilish hamda hayotiy vaziyatlarda amaliy qo'llay bilish qobiliyatini o'zida mujassam etgan kompleks ko'nikmadir. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qish savodxonligi shaxsning xususiy savodxonligi tarkibida yuqori o'rinni egallab, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi hamda mantiqiy tafakkurini, axborot bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.[3]

Bugunga kelib o'qish savodxonligi faqat o'qish tezligi yoki so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish bilan cheklanmaydi. U murakkab jarayon bo'lib, o'quvchidan tahlil qila olish, tanqidiy hamda ijodiy fikrlashni talab etadi. Shu bois Xalqaro baholash dasturlari, jumladan, Pirls boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligiga keng qamrovli ta'sirni amalga oshiradi. O'qish savodxonligi murakkab hamda ko'p qirrali hodisa bo'lib, u bir nechta komponentlarni mujassamlashtiradi. Ushbu tarkibiy qismlarni aniq va ravon ko'rinishda ifodalash maqsadida, asosiy komponentlari quyida jadvalda keltirib berilgan. Mazkur komponentlar o'quvchilar matnni qayta ishlashi hamda mantiqiy xulosalar chiqara olish ko'nikmasining asosini tashkil etadi.



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'qish savodxonligi, nafaqat, matnni o'qish jarayonini, balki o'quvchining matnga kognitiv, emotsional hamda madaniy munosabatini ham o'z ichiga oladi. Har bir tarkibiy qism o'quvchining mustaqilligini, fikrlash darajasini belgilaydi. Shu sababli komponentlarni alohida emas, yaxlit, o'zaro bir-biriga bog'liq holda o'rganish muhimdir.

O'qish savodxonligi o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonni to'g'ri amalda qo'llash o'quvchilarning umumiy fikrlashi, tafakkuri, nutq madaniyatini sezilarli yaxshilanishiga olib keladi. Shuning uchun ham, ta'limni tashkil qilishda o'qituvchining qobiliyatlari, metodik yondashuvi, tanlangan matnning mazmundorligi, o'quvchi faoliyatiga ta'sir etuvchi rivojlantiruvchi metodlar qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, o'quvchilarni o'qishga jalb qilishda mazmuniy ifodaviy va texnik tomonlari uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlash maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki o'qishning samaradorligi uning tarkibiy qismlari chambarchas bog'liqlikda ishlaganda namoyon bo'ladi.

Xususan, o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda to'rt asosiy muhimdir: to'g'ri va xatosiz o'qish, ravon o'qish, anglab o'qish hamda ifodali o'qish.[4] Ushbu sifatlar bosqichma-bosqich amalga oshirilganda o'quvchi matnni to'liq idrok etadi, mazmunini tushinadi, fikr bildiradi.

Shuningdek, ushbu sifatlar o'quvchilarning mustaqil o'qish malakalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. To'g'ri va ravon o'qish matnni texnik tomonlarga o'rganishga qaratilgan bo'lsa, anglab hamda ifodali o'qish o'quvchining matnga bo'lgan xulosasini shakllantiradi, uni tahlil qilishga, o'qish jarayonini yanada mazmunli va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Natijada kitobxon o'qiganlaridan xulosa chiqara olish, o'z fikrini erkin ifodalab berish va o'rgangan bilimlarini hayotga tatbiq etish kabi ko'nikmaarga ega bo'ladi.

O'qish savodxonligini shakllantirishda quyidagi tarkibiy qismlar alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Texnik o'qish malakasi. Bu qismda o'quvchining harflarni tanishi, ulardan so'zlar hosil qilishi hamda so'zlardan gap hosil qila olishi nazarda tutilgan. O'qish jarayonining oson kechishi keying bosqichlar uchun ko'mak bo'ladi.

2. Ravon o'qish. Bu harflar, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni, pauzalarsiz tabiiy ritmda hamda urg'ularni mantiqiy o'rinni to'g'ri qo'llay olish malakasidir. Ravon o'qiy olgan o'quvchi endi e'tiborini texnik jarayonga emas mazmunni anglashga qaratadi.

3. Anglab o'qish. Bu darajada o'quvchi matnni tahlil qila oladi, asosiy g'oyani ajrata biladi, xulosalaydi. Anglab o'qish o'quvchida fikrlash, xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantiradi.

4. Ifodali o'qish. Matnni ohang urg'u pauza, intonatsiyalarga amal qilgan holda o'qish, nafaqat, badiiy matnni mazmunini anglab yetishiga, balki nutq madaniyatini rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi.

5. Tanqidiy fikrlash va tahlil. O'quvchining o'qigan matni mazmunidan mulohaza qilish, muallifning g'oyasini anglash, mustaqil xulosa chiqarish o'qish savodxonligining eng yuqori darajasini belgilab beradi.

O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'qituvchi tomonidan aniq metodik usulning qo'llanishi, turli xil matnlar bilan ishlash, muhokama va savol-javob va hokazolar katta ahamiyatga ega. Shuningdek, o'quvchilarni mustaqil o'qishini ta'minlash, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish orqali savodxonlikni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, o'qish savodxonligi kitobxonning matnni to'g'ri va ravon, ifodali o'qish orqali matn mazmunini anglashiga yordam beruvchi muhim ko'nikma hisoblanadi. Ushbu sifatlarning shaklanishi o'quvchilarning aurasini kengaytiradi, mustaqil ishlash malakasini rivojlantiradi. Shu sababli, o'qish savodxonligini rivojlantirish ta'lim sohasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4789-son "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoni// Xalq so'zi, 2017-yil 13-yanvar. www.president.uz
2. <https://www.interscience.uz/index.php/home/article/download/515/405>
3. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma - Samarqand XTXQTMOHM, 2020.
4. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini baholash. (o'quv qo'llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. -94 b.
5. D.A.Sobirova, N.K.G'ofurjanova "Boshlang'ich ta'limda matn ustida ishlash metodikasi" fanidan o'quv-uslubiy majmua 2024.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-qish-savodxonligini-pirls-talablari-asosida-rivojlantirish/viewer>